

## **O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida onalar timsoli**

**Egamnazarova Gulhumor Odiljon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ona siymosi barcha xalqlar uchun mo'tabar va azizdir. Ularni bog'lab turuvchi fazilatlar bisyor, ammo har bir xalqning onasi o'z madaniyati, ichki dunyosi, ko'rinishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Lekin ularning barchasi munis, barchasi farzandi uchun har narsaga tayyor. Ona haqida ko'plab ta'rif-u tasniflarni eshitar ekanmiz, har bir shoir-u yozuvchilarning fikrlarini o'qib ta'sirlanamiz. Ona timsolining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovdir. Uning “Dunyoning ishlari” asarida ona obraziga bergan chizgilari yuksak mahorat sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy asar, tahlil, ona, madaniyat, alla.

O'zbek adabiyotida ona timsolini namoyon etuvchi asarlar talaygina. Ammo O'tkir Hoshimovning asarlaridan ona mehri, muhabbati ufurib turadi. So'zning isboti sifatida taniqli va mahoratli yozuvchi Said Ahmadning fikrini keltirishimiz mumkin: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. uni o'qib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'dalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”<sup>1</sup>.

Salkam qirq yil muqaddam yozilgan ushbu asar o'z ichiga nafaqat muallifning onasi haqidagi fikr-mulohazalarni va ichki kechinmalari, balki zamonning, uning atrofidagi insonlarning ichki va tashqi ko'rinishlariga bag'ishlangan.

---

<sup>1</sup> Ahmad.S “Dunyoning ishlari” asari haqida

“Dunyoning eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu – ona mehri”.<sup>2</sup> Yozuvchi onalarning mehr-muhabbatini xuddi shunday go’zal inju so’zlar bilan ta’riflaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, O’tkir Hoshimovning ushbu asari dunyodagi eng oliy xilqat, ya’ni onalarimiz siymosi-yu, ularning hayot yo’lidagi qiyinchiliklarni turli vaziyatlarda o’zlarini mardona tutgan holda yengib o’tishi qalamga olingan. “Onalarimizning biz tushunmaydigan, bizning o’lchovimizga sig’maydigan o’z olamlari bor”<sup>3</sup> - deydi asar muallifi. Asardan joy olgan “Bola yig’isi” hikoyasida onaning begona bolani yupatishi, unga shirin gaplarni gapirib ko’nglini olishga harakat qilishi insoniylik jihatdan onaning bebaho ekanligini, tengsiz yaratilganligini ko’rsatadi.

Asarni aynan adabiy jihatdan emas, balki ijtimoiy jihatdan tahlil qiladigan bo’lsak, zamonning, atrof-muhitning va hayot tarzining og’ir kechishi va undagi o’zgarishlarga insonlarning munosabatini chuqur tahlil qilishimiz mumkin. So’zning isboti sifatida “Qarz” hikoyasini misol keltirsak. U ushbu hikoyada onaning o’z bolalariga bo’lgan mehr-u muhabbatini yanada yuqori pog’onaga ko’taradi.

O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasida Zebi xola, Sepkilli xola, Amma, Acha xola, Risolat xola, Habiba buvi singari obrazlarni uchratishimiz mumkin. Ularning barchasi ona obrazi sifatida namoyon bo’ladi.

Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag’ishlangan bo’lsa-da, ona obrazi voqealar rivoji bevosita va bilvosita ona taqdiriga borib taqaladi.

Har qanday asarning bir bo’lagi, tabiiyki, muallifning o’z hayoti bilan bog’liq bo’ladi. “Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko’z oldimga keladi”<sup>4</sup>. Asarning bir bobi mana shunday so’zlar bilan boshlanadi. Bu esa yozuvchining asarga o’z qalbini bag’ishlaganini anglatadi.

Ona timsoli dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo’tabardir, o’z farzandi uchun jonidan ham kechadigan ona holatini asardagi “Gilam paypoq” hikoyasida

---

<sup>2</sup> O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”.

<sup>3</sup> O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”

<sup>4</sup> O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” asari

ko'rishimiz mumkin: "O'shanda necha yoshligim esimda yo'q, biroq juda kichkina edim. Hushimdan ketayotganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi: "Voy endi nima qilaman, voy bolam o'lib qoladi!"<sup>5</sup>

Ona mana shunday zotki, hamisha bolasini o'ylaydi. O'tkir Hoshimov ona timsolini yuqori nuqtaga ko'targan ma'rifatparvar ijodkordir. Ko'p holatlarda zamonaviy hayot tarzi, jamiyatning, insonlarning hayot tamoyillari o'zgarganini, shu davrda yashagan katta yoshdagi qariyalarning o'tgan davrning yaxshiligi haqidagi fikrlariga duch kelishimiz mumkin. Bunday fikrlarni chuqur anglashimiz uchun ham asarni mutolaa qilish lozim.

"Tasalli" hikoyasida esa onasini so'nggi manzilga kuzatgan farzand kechinmalari o'z ifodasini topgan. Onasi vafot etgach, yomg'ir tinmagani, qabrga qo'yilganidan so'ng esa quyosh charaqlaganini ko'rgan farzand ushbu belgini ham yupanch ma'nosida tushunadi. U shuni anglaydiki, hayotda ham yaxshi insonlar ko'pligi, ularning orasida onasining ham borligi va bunga tabiat shu tarzda javob berayotganini tushunadi. Va qabrga tikilganча o'yga toladi.

"Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona-ona ekan. Unga boshqa sifat kerak emas"<sup>6</sup>

Ona qachon xotirjam bo'ladi, qachonki farzandlarining baxtini, ularning o'zaro ahilinoqligini ko'rganida xotirjam bo'ladi. "Haqqush" hikoyasida buning yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin. Onalarimizni vaqtida qadrlamas ekanmiz, vaqt ajratmas ekanmiz, vaqt bizni bir kun kelib onalarimizdan ajratganida afsus-nadomat chekkanimizning zarracha foydasi bo'lmaydi.

Hayotning ajralmas qismi sifatida insonning tarbiyasini va xislatlarini ta'kidlash joiz. Insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, uning hayotga bo'lgan qiziqishlari va intilishlarini rag'batlantirish asosiy tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Muallif

---

<sup>5</sup> Hoshimov O'Dunyoning ishlari. Qissa

<sup>6</sup> Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Tasalli

tomonidan ilgari surilgan insoniylik, tarbiya, onaning mehr-u muhabbati ushbu qissa bilan to'liq o'quvchiga yetkazilgan.

Qissadagi asosiy masala – onalarimizni vaqtida qadrlash, ularning roziligini olishdan iborat. Bu masala har doim zamon va makon uchun birday muhim.

Yozuvchi esa hammaga tanish bo'lgan ushbu muammoni kitobxonga yuksak did bilan yetkaza olgan. O'tkir Hoshimov buni uddalay olgan yuksak mahoratli adib.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Qissa va hikoyalar – T.
2. Ahmad. S. “Dunyoning ishlari” qissasi haqida.
3. Umumiy siyosatshunoslik lug'ati. 2018. – Moskva.